



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




No7
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiyaga fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 202 sahifa,
1-iyul, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)

Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)

Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Umarova H. O'. – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Konvergent tahririyat mas'uliyati: Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonini yoritish tendensiyalari	16
Doniyorov Salim Musurmonovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish.....	23
Nazarov Odil Omanqulovich	
"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni	27
Abirova Umida Nazarovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati	30
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li	
Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari	34
Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati	38
Salimova Dilmira Farxodovna	
Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar	41
Rajabov Asliddin Xolmirzayevich	
Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'limida muloqotning ahamiyati.....	44
Boltayev Baxtiyor Yunusovich	
Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar	48
E. Po'latova	
Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ...	51
Egamova Ravshanoy Surobjonovna	
O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin?	
Innovatsion ta'lim yondashuvlari va samarali strategiyalar.....	55
G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi	60
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons	63
Mavlonova Dildora Shuxrat qizi	
Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish	67
Nomozova Dilobar Suyun qizi	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar	72
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories	75
Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li	
Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction: a Review of Recent Literature	80
Ruzieva Maftuna	
Onlayn va gibril ta'lim sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga qiziqishni oshirishning nazariy asoslari.....	85
Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna	
Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun "Metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida)	88
Sharipova Hakima Shavkatovna	
Metacognition and Self-Regulated Learning	92
Turayeva Nazira Ibragimovna	
Методические возможности совершенствования обучения научной письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода	95
Меденцева Наталья Петровна	
Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari	100
Jonibekov Jasur Jonibekovich	



O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi.....	105
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi	
Sharq va G'arbda tibbiyot fanlarining yaratilishi tarixi.....	108
Bakayev Najmiddin	
Didaktik o'yinlar bola faoliyatining asosiy vositasi sifatida.....	112
Egamova Madina Qobil qizi	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining konvergent-kreativ tafakkurini takomillashtirishning didaktik asoslari.....	116
Egamova Shukriya Amanovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish imkoniyatlari	119
G'aybullayeva Nafisaxon Nosirjon qizi	
Matematika o'qitishning klassik metodlaridan zamonaviy usullarga o'tish	124
G'ofurov Jamoliddin Xusniddinovich	
Jahon miqyosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	128
Hoshimova Dilnoza Boymirzoyevna, Mahmudova Zulfiya Homidovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning prognostik kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari.....	131
Ikromova Munisa Sheraliyevna	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarligini grafik ma'lumotlar asosida oshirishning didaktik asoslari	134
Jumanazarova Zuhra Qosimjonovna	
Sport va jismoniy tarbiya pedagogikasida innovatsion metodlar	138
Jumanova Iroda Shokirjon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish	141
Jumayeva Sarvinov Ilhombekovna	
Talabalarda nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantirish texnologiyasi	145
Kiyamova Maxbuba Sultanovna	
Innovatsion yondoshuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning amaliy jihatlarini	148
Mamadiyev Jamol	
Ingliz tili matnlarini o'rganishda 6-sinf o'quvchilarining grammatik kompetensiyasini oshirish va tatbiq qilishning samarali usullari.....	152
Sharipova Firuza Mehriddinovna	
Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli	155
Tursunov Hojiakbar Hamidullo o'g'li	
Maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – pedagogik muammo sifatida.....	159
Xallovkova Maksudaxon Ergashevna	
Altruistik xulq-atvorning shaxsiy va ijtimoiy determinantlari.....	162
Xatamova Ferangiz Ibodulloevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	166
Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna	
Refleksiv yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va afzalliklari.....	170
Yodgorova Gulrux Farhodovna	
Совершенство методики формирования компетентности будущих студентов-искусствоведов в условиях цифрового образования.....	174
Юлдашев Эргаш Сабинович	
O'z-o'zini rivojlantirish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati.....	177
Kudenov Temurbek Maxsetbaevich	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida hikoya janrini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb muammo sifatida	180
Ergasheva Shoxida Nurmuxammadovna	
Ingliz tili darslarini interaktiv tashkil etishda raqamli ta'lim vositalarining o'rni va metodik yondashuvlar	185
Raxmatullayeva Barno Baxtiyor qizi	
The Effectiveness of Using Podcasts to Enhance Listening Comprehension and Vocabulary Acquisition in Secondary School English Classes	189
Meliboyev Zuxriddin Isroil ugli	



O'zbekiston tarixi darslarida pedagogik improvizatsiyani texnologiyalashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlari	192
Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna	
Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning samaradorligi.....	196
Arslanova Umidaxon Komiljon qizi	

TASVIRIY FAOLIYAT VOSITASIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING BADIY- IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING SAMARADORLIGI

Arslanova Umidaxon Komiljon qizi

Namangan davlat universiteti

13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va
metodikasi ixtisosligi 2-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimizda ta'lim taraqqiyotiga, ayniqsa, maktabgacha ta'limga bo'lgan e'tiborning naqadar yuksak darajada ekanligi hamda bugungi kunda respublikamiz hududida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining aqliy yetuk, jismonan sog'lom, ayniqsa qobiliyatli ijodkor bo'lib voyaga yetishlari davlat talabi ekanligi yoritiladi. Shuningdek, maktabgacha yosh davri inson tafakkuri shakllanishidagi eng muhim bosqich sifatida olimlar tomonidan aniq dalillarga asoslanib e'tirof etilganligi, maktabgacha yoshdagi bolalarni tasviriy san'atga o'rgatish orqali fikrlash qobiliyatini, ko'rish xotirasini, ijodiy tasavvurni, badiiy didni rivojlantirishga qaratilgan faoliyat, shuningdek, maktabga bolalarni tayyorlashda tasviriy faoliyatga o'rgatishning – rasm chizish, loy ishi, applikatsiya, qurish, yasash kabi malakalarni egallashlari maktabda tasviriy san'at va mehnat darslarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari uchun zamin bo'lishi haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: rasm, qobiliyat, samaradorlik, ijodiy rivojlanish, estetik tarbiya, applikatsiya, tasvir, ijodkorlik, tasviriy san'at, obraz.

Abstract: This article discusses the high level of attention paid to the development of education in our country, especially preschool education, and the fact that today it is a state requirement for preschool education institutions in our republic to raise mentally mature, physically healthy, and especially talented creative individuals. It also highlights that the preschool period has been recognized by scientists, based on clear evidence, as the most important stage in the formation of human thinking. Teaching preschool children fine arts is an activity aimed at developing thinking skills, visual memory, creative imagination, and artistic taste. Furthermore, teaching children fine arts in preparation for school can serve as a foundation for them to acquire skills such as drawing, clay work, applique, and construction, which in turn will help them successfully master fine arts and labor lessons at school.

Key words: painting, ability, efficiency, creative development, aesthetic education, applique, image, creativity, fine arts, image.

Аннотация: В статье говорится о высоком уровне внимания, уделяемого развитию образования в нашей стране, особенно дошкольного образования, и о том, что сегодня в дошкольных образовательных учреждениях нашей республики государственным требованием является воспитание психически зрелых, физически здоровых и особенно талантливых творческих личностей. Также подчёркивается, что дошкольный период признан учёными на основе убедительных доказательств важнейшим этапом формирования мышления человека. Обучение детей дошкольного возраста изобразительному искусству – это деятельность, направленная на развитие мыслительных способностей, зрительной памяти, творческого воображения, художественного вкуса, а также подчёркивается, что обучение детей изобразительному искусству в период подготовки к школе может послужить основой для приобретения ими таких навыков, как рисование, лепка из глины, аппликация, конструирование, и для успешного освоения уроков изобразительного искусства и труда в школе.

Ключевые слова: живопись, способность, эффективность, творческое развитие, эстетическое воспитание, аппликация, образ, креативность, изобразительное искусство, образ.



KIRISH

Maktabgacha ta'limning vazifasi bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash: bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'z fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlashdan iborat. Asosiy maqsadlardan yana biri zamonaviy tasviriy san'at orqali bolalardagi qobiliyat hamda imkoniyatlarni aniqlab, ularni to'g'ri shakllantirish va yuzaga chiqarishdir. Tasviriy san'atning o'ziga xos murakkabliklarini tushunib, uning nozik qirralarini maktabgacha yoshdagi bolalarga ulashish mahoratiga ega bo'la oladigan tarbiyachilarni yetishtirib chiqarish vazifasi turibdi. Bolaning badiiy-ijodiy o'sishi - bu obrazli fikr yuritish, estetik idrok etishni va obraz yaratishda zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalarni egallash hisoblanadi. Masalan, tabiatga yoki istirohat bog'iga sayr, kuz faslida ekskursiya uyushtirish. Tarbiyachi bolalarning predmet yoki tevarak-atrofnı kuzatishdan kelib chiquvchi estetik his-tuyg'u orqali tevarak-atrofga, kishilar mehnatiga to'g'ri baho berish, vatanga nisbatan muhabbat kabi sifatlarni tarbiyalashi mumkin. Bolalarning o'z ishini yana ham chiroyli va yaxshi bajarish, boshqalarga yoqadigan, ular ko'rganda quvonadigan qilib yaratish - bu badiiy-axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifasi hisoblanadi. Maktabga bolalarni tayyorlashda tasviriy faoliyat katta ahamiyat kasb etadi. Rasm, loy, qurilish materiallari bo'yicha bilim va malakalarini egallashi maktabda tasviriy san'at va mehnat darslarini muvaffaqiyatli egallashlariga asos bo'la oladi. Ularni o'quv faoliyatiga tayyorlaydi, pedagogni tinglashga, uning ko'rsatmalarini bajarishga o'rgatadi. Oldiga qo'yilgan vazifani bajarishda, uning oddiy va muhim hal etish yo'llarini izlab topish bu o'quv faoliyatning asosiy mezonlaridan biridir. Tasviriy faoliyat jarayonida o'z ishini nazorat qilib borish, maktabda vazifalarni bajarishda ham rol o'ynaydi. Shuningdek, bola tasviriy faoliyat jarayonida psixologik jihatdan ham tayyorlanib boradi. Maktabda: o'qishga xohish, yangiliklarni bilishga intilish, maqsad sari intilish, tartibli holda shug'ullanish va shu kabilar. Shunday qilib, tasviriy faoliyat jarayonida olgan malakalari bolalarning maktab hayotiga tezda kirishib ketishiga asos bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tasviriy faoliyat – bu bolalarga estetik tarbiya berish va ulardagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning asosiy vositalaridan biridir. Har bir predmetning katta-kichikligini, rangini, shaklini, fazoda joylashishini ajratish bu estetik sezgini bo'laklari hisoblanadi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi - bu rangi, ritmi, proporsiyani chuqurroq sezish bilan bog'liqdir. Bolalar rangni, shaklni, uning xilma-xilligini sezsa yoki aks etsa, u shunchalik ranglar aralashmasining rang-barangligidan zavq oladi, bahramand bo'ladi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi, ular predmetga va uning ba'zi sifatlariga nisbatan estetik baho berishga o'rganadi. Ularda tasviriy san'at asarlarini tushunishga, ularga nisbatan his-tuyg'uni, munosabatni tarbiyalaydi. Tasviriy faoliyat bolalarni badiiy-ijodiy o'stirishda muhim rol egallaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat vositasida bolalarning estetik qobiliyatlarini shakllantirishda tarbiyachining o'rni beqiyos. U chuqur bilim va yuqori malakaga ega bo'lishi, buning uchun muntazam ravishda o'z ustida ishlashi, o'zining ilmiy-nazariy saviyasini tinimsiz ko'tarishi, ilg'or tajribalarga tayanishi kerak. Tasviriy faoliyat bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkiloti dasturi va maktabda tasviriy san'at dasturi bolalarda tevarak-atrofga nisbatan, san'at bolalarda estetik munosabatni tarbiyalash ijodiy qobiliyat va tasvirlashlarini rivojlantirishni ko'zda tutadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'limiy faoliyatida maktabda muvaffaqiyatli o'qib ketishlari uchun zarur bo'lgan vazifalar hal etiladi. Rasm, applikasiya, loy ishlari jarayonida bolalarda fikr yuritishning analiz, sintez, takrorlash, konkretlashtirish kabilar shakllanadi. Shuningdek, bu jarayonlarda bolalar jamoada ishlashga, o'z harakatini o'rtoqlarining harakatiga bo'ysundirishga o'rganadilar. Bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotida tasviriy faoliyati mashg'ulotlari bolalarda, o'quv faoliyatida zarur bo'lgan malaka-ko'nikmalarni shakllantiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tasviriy faoliyat birlamchi yo'nalishi maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy-estetik tarbiyalash hisoblanadi. Bu yo'nalishning samarasi estetik yo'nalishning barcha vositalarini (teatr, musiqa, badiiy adabiyot, rasm chizish, applikasiya va boshq.) kompleks tarzda qo'llanilgandagina aniq bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tiladigan "Tasviriy faoliyat" mashg'ulotlari bolalarga beriladigan estetik tarbiya masalalarini yechishda katta ahamiyatga ega. Chunki tasviriy faoliyat o'z xususiyatiga ko'ra badiiy faoliyat hisoblanadi. Badiiy faoliyat mashg'ulotlarining barcha turlari bolalarda go'zallikni bilish uchun, borliqqa emotsional-estetik munosabatni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni ochib beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarda bolalar asosan amaliy ish bajaradilar, san'at asarlarini bilan rasmga qarab hikoya qilish; maktabda esa tasviriy san'atning turlari rang tasvir, grafik, haykaltaroshlik va dekorativ san'at asarlari bilan yanada chuqurroq tanishadilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha ta'lim tashkilotida tasviriy faoliyat mashg'ulotlari xilma-xildir: rasm chizish, loy, applikasiya, qurish-yasash mashg'ulotlari hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida keltirilgan mashg'ulotlarning barchasiga katta ahamiyat beriladi. Boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya masalalarining muvaffaqiyatli hal etilishi maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan tasviriy faoliyat mashg'ulotlari bilan uzviy ravishda olib boriladi. Bolalar guruhda olib boriladigan tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida qalam hamda mo'yqalamdan erkin foydalanishga, o'z xarakterini va qo'l kuchini idora etishga o'rganadilar. Bu esa malakani egallash, bolalarda qo'lni yengil, erkin, bir tekisda harakatlantirish xususiyatlarini rivojlantiradi.

Bolalar turli shakl, kattalik, proporsiyadagi predmetlarni chizish jarayonida, predmetning ish xususiyatiga qarab yo'nalishni saqlash zarurligiga, predmet kattaligiga mos ravishda harakatlanishga o'rganadilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotida olib boriladigan tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida materialdan tartibli foydalanishga, ularni toza saqlashga, faqat zarur materiallardan hamda ularni ishlatish yo'llarini rejalashtirishga o'rganadilar. Bu faoliyatlar bolalarda diqqatni va ko'rish xotirasini rivojlantiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tayyorlov guruhida naturaga qarab rasm chizish yoki tasvirlashga nisbatan talablar ortadi va bu talablar maktab talablariga yaqinlashadi. Naturaga qarab tasvirlashda ishning ketma-ketligini ko'rsatib berish, bolalar tayyorlov va katta guruhda o'rganishning boshlang'ich bosqichidagina amalga oshiriladi. Bolalar naturani analiz qilishga, butun umumiy shaklni xomaki qog'ozga tushirib olishga, rasmni naturaga solishtirishga, xato va kamchiliklarini to'g'rilashga, naturaga o'xshatishga urindilar. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida geometrik shakllarni topa olishga yoki ko'ra olishga, ularni terminlar bilan atashga, kengligi, kattaligi, uzunligi, balandligi, qismlarning bir-biriga nisbatan fazoviy joylashishini aniqlashga o'rganish – bolalarning maktabning 1-sinfida elementar matematik tushunchalarni puxta egallashlariga yordam beradi. Qurish-yasash mashg'ulotlarida materiallardan foydalanib qurish-yasash bolalarda ko'z bilan chamalashni shakllantiradi va ularni maktabdagi texnik darslarni o'zlashtirishga tayyorlaydi. Shunday qilib, tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalardagi badiiy did va ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi va bu orqali maktabga o'qishga tayyorlanish ta'minlanadi. Chunki bolalar predmetlar bilan uzviy bog'lanadilar, ularning o'ziga xos sifati, shakli, rangi, katta-kichikligi bilan tanishadilar, ularning farqini va o'xshashligini aniqlaydilar. Bu esa bolalarni sensor tarbiyalashga, ko'rgazmali va obrazli fikrlashga yo'naltiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tiladigan "Tasviriy faoliyat" mashg'ulotlari bolalarga beriladigan estetik tarbiya masalalarini hal etishda katta ahamiyatga ega. Chunki tasviriy faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra badiiy faoliyat hisoblanadi. Badiiy faoliyat mashg'ulotlarining barcha turlari bolalarda go'zallikni anglash, borliqqa emotsional-estetik munosabatni shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. "Tasviriy faoliyat" mashg'ulotlari jarayonida: badiiy didni tarbiyalash; amaliy badiiy faoliyat va malakalarni rivojlantirish; fantaziya, ijodiy fikrlash va tasavvur qilish, idrok qilishni rivojlantirish; qo'lning aniq harakatlari va barmoqlarning mayda motorikasini rivojlantirish; kasbiy badiiy-ijodiy faoliyat kurtaklarini namoyon qilish uchun imkon yaratish kabi ta'limiy va tarbiyaviy masalalar hal etib boriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun ishlab chiqilgan takomillashtirilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining tuzilishi va mazmuni tahlilidan ayon bo'lishicha, kichik guruhlardan boshlab eng ko'p vaqt tasviriy faoliyatga ajratilgan. Agar tasviriy faoliyat turlarini – rasm (2 soat), applikasiya (0,5 soat), qurish-yasash (0,5 soat), loy ishlari (1 soat) – qo'shib hisoblasak, jami 4 soatni tashkil etadi. Haftalik yuklama 12 soatni tashkil etishini inobatga olsak, tasviriy faoliyat barcha faoliyatlarning uchdan bir qismini tashkil etadi.

Demak, tasviriy faoliyat integrativ mazmun kasb etuvchi eng katta bo'lim hisoblanadi va u faoliyatning boshqa turlari bilan mantiqiy va didaktik bog'liqlikda amalga oshiriladi. Bu omil tasviriy faoliyat mashg'ulotlari mazmuni va metodikasini faoliyatning boshqa turlariga hamohang tarzda takomillashtirib borish lozimligini anglatadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalar asosan amaliy ish bajaradilar, san'at asarlari bilan tanishadilar, rasmga qarab hikoya qilishni o'rganadilar; maktabda esa tasviriy san'atning turlari – rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik va dekorativ san'at asarlari bilan yanada chuqurroq tanishadilar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida tasviriy faoliyat mashg'ulotlari xilma-xildir: rasm chizish, loydan ishlash, applikasiya, qurish-yasash mashg'ulotlari hisoblanadi. Keltirilgan barcha mashg'ulotlarga katta ahamiyat beriladi. Boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya masalalarining muvaffaqiyatli hal etilishi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan tasviriy faoliyat mashg'ulotlari bilan uzviy ravishda bog'lanadi. Bolalar guruhda olib boriladigan tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida qalam hamda mo'yqalamdan erkin foydalanishni, o'z xakteri va qo'l kuchini idora etishni o'rganadilar. Bu esa malaka hosil qilish, qo'lni yengil, erkin, bir tekis harakatlantirish kabi xususiyatlarni rivojlantiradi. Bolalar turli shakl, kattalik, proporsiyadagi predmetlarni chizish jarayonida ularning ish xususiyatiga qarab yo'nalishni saqlash, predmetning kattaligiga mos ravishda harakat qilishni o'zlashtiradilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan tasviriy mashg'ulotlarda bolalar materialdan



tartibli foydalanishga, uni toza saqlashga, faqat zarur materiallardan foydalanishga va ularni ishlatish usullarini oldindan rejalashtirishga o'rganadilar. Bu esa bolalarda diqqat va ko'rish xotirasini rivojlantiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotining tayyorlov guruhida naturaga qarab rasm chizish yoki tasvirlashga nisbatan talablar oshadi va bu talablar maktab talablariga yaqinlashadi. Naturaga qarab tasvirlashda ishning ketma-ketligi ko'rsatiladi va bolalar tayyorlov hamda katta guruhlarda o'rganishning boshlang'ich bosqichidanoq bu faoliyatga jalb etiladilar. Bolalar naturani tahlil qilish, umumiy shaklni xomaki qog'ozga tushirib olish, rasmni naturaga solishtirish, xatolarni to'g'rilash, naturaga o'xshatishga intilishni o'zlashtiradilar.

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalar geometrik shakllarni topish, ularni terminlar bilan atash, kenglik, uzunlik, balandlik, qismlarning bir-biriga nisbatan fazoviy joylashuvini anglash orqali boshlang'ich sinfda elementar matematik tushunchalarni puxta egallashga tayyor bo'ladilar. Qurish-yasash mashg'ulotlarida esa bolalar materiallardan foydalangan holda ko'z bilan chamalashni o'rganadilar va bu texnik yo'nalishdagi darslarni egallashlariga yordam beradi. Shunday qilib, tasviriy faoliyat mashg'ulotlari bolalarning badiiy didi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, shu orqali ularni maktabga tayyorlaydi. Chunki bolalar predmetlar bilan bevosita bog'lanadilar, ularning o'ziga xos xususiyatlari – shakli, rangi, kattaligi bilan tanishadilar, farq va o'xshashliklarni ajrata boshlaydilar. Bu esa bolalarda sensor tarbiyani, ko'rgazmali va obrazli fikrlashni shakllantiradi. Tasviriy faoliyat bolalarni axloqiy jihatdan ham tarbiyalaydi. Bolalar ishlarida o'z hayotlari va jamiyatdagi voqea-hodisalarni aks ettiradilar, ulardan mamnun bo'ladilar, hayajonlanadilar. Ushbu faoliyat jarayonida bolalarda iroda sifatleri – boshlagan ishini oxiriga yetkazish, maqsad sari intilish, qiyinchiliklarni yengish, o'rtoqlarga yordam berish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Jamoaviy ishlar davomida esa hamkorlik, kelishib ishlash, ishni baholash jarayonida esa real fikr bildirish, o'z va boshqalarning ishidan mamnun bo'lish kabi axloqiy fazilatlar shakllanadi.

Tasviriy faoliyat – bu bolalarni o'z oldiga qo'ygan maqsadni amalga oshirishga undovchi faoliyatdir. U bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Har bir predmetning kattaligi, rangi, shakli va fazodagi joylashuvini ajratish – estetik sezgining muhim bo'laklaridan biridir. Estetik sezgining rivojlantirish rang, ritm, proporsiyani chuqurroq sezish bilan bog'liq. Bola rang, shakl va ularning xilma-xilligini his qila olgan sayin, u ranglar uyg'unligidan zavq oladi, estetik baho berishni o'rganadi. Ularda tasviriy san'at asarlarini tushunishga, ularga nisbatan his-tuyg'ularni, munosabatni tarbiyalashga e'tibor qaratiladi. Tasviriy faoliyat bolalarning badiiy-ijodiy o'sishida muhim o'rin egallaydi. Bolaning badiiy-ijodiy o'sishi – bu obrazli fikr yuritish, estetik idrokni shakllantirish va obraz yaratishda zarur bo'lgan malaka hamda ko'nikmalarni egallashdan iborat. Masalan, tabiatga yoki istirohat bog'iga sayr, kuz faslida ekskursiya uyushtirish mumkin. Tarbiyachi bolalarda predmet yoki tevarak-atrofnı kuzatish orqali paydo bo'ladigan estetik his-tuyg'ular orqali atrof-muhitga, kishilar mehnatiga to'g'ri baho berish, Vatanga nisbatan muhabbat kabi sifatlarni tarbiyalashi mumkin. Bolalarni o'z ishini yanada chiroyli va yaxshi bajarishga, boshqalarga yoqadigan, ularni quvontiradigan tarzda ijod qilishga o'rgatish – bu badiiy va axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalaridan biridir. Maktabga bolalarni tayyorlashda tasviriy faoliyat katta ahamiyatga ega. Rasm, loy, qurilish materiallari bo'yicha bilim va malakalarga ega bo'lish, keyinchalik maktabdagi tasviriy san'at darslari va mehnat mashg'ulotlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishga asos bo'ladi.

Bu faoliyat ularni o'quv faoliyatiga tayyorlaydi: pedagogni tinglash, uning ko'rsatmalarini bajarish, oldiga qo'yilgan vazifani hal etish, muammoning asosiy va muhim yechim yo'llarini izlab topish – o'quv faoliyatining muhim omillaridan biridir. Tasviriy faoliyat jarayonida o'zishini nazorat qilish ko'nikmasi maktabdagi topshiriqlarni bajarishda ham katta rol o'ynaydi. Shuningdek, bola tasviriy faoliyat jarayonida psixologik jihatdan ham maktabga tayyorlanadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida katta guruh bolalari bilan kuzatish asosida rasm chizishga alohida e'tibor qaratiladi, chunki bu bosqich naturaga qarab rasm chizishga tayyorgarlikning boshlang'ich pog'onasi hisoblanadi. Bu esa bolalarda ko'rish xotirasini rivojlantiradi, ba'zida predmetni natura sifatida to'g'ri tasvirlashga yordam beradi. Maktabgacha ta'limda tasviriy faoliyatni samarali tashkil etish uchun tarbiyachilarga quyidagi maslahatlar berilishi mumkin: Bolalarni tasviriy faoliyatga jalb etishda ularning yoshiga mos materiallar va vositalardan foydalanish. Mashg'ulotlarda interaktiv usullardan foydalanib, bolalarni faol ishtirokchiga aylantirish. San'at va tabiatni kuzatish orqali bolalarga atrof-muhitdagi go'zallikni ko'rish va unga nisbatan estetik munosabat bildirishni o'rgatish. Estetik didni rivojlantirishda tasviriy san'atning barcha turlaridan (rasm, haykaltaroshlik, dizayn) foydalanish va bu turlarni bolalarga tanitish.

XULOSA

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlari hamda estetik didini rivojlantirishda tasviriy faoliyatning o'rni va ahamiyati yoritildi. Tasviriy faoliyat bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi, ranglar va shakllarni idrok qilish, atrof-muhitdagi go'zallikni qadrlashga yordam beradi. Bu esa estetik didni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ta'lim jarayonida bu faoliyatni samarali tashkil etish uchun mos metodlar va yondashuvlar muhim o'rin tutadi. Maqolada keltirilgan tavsiyalar va amaliyotlar tasviriy faoliyatni ta'lim jarayoniga joriy etishda katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, bu faoliyat bolalarning nafaqat estetik, balki intellektual va ijodiy rivojlanishiga ham hissa qo'shadi. Guruhdagi tasviriy mashg'ulotlarda bolalar qalam,



mo'yqalamdan erkin foydalanishga, o'z xarakterini va qo'l kuchini boshqarishga o'rganadilar. Bu malaka orqali qo'l harakatlarini yengil, erkin, bir tekisda amalga oshirish xususiyatlari rivojlanadi.

Bolalar turli shakl, kattalik va proporsiyadagi predmetlarni chizishda ularning holati, yo'nalishi va uzunligiga mos tarzda harakatlanishga o'rganadilar. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar materiallardan toza va tartibli foydalanishga, zarur vositalarni tanlash va ularni rejalashtirib ishlatishga o'rganadilar. Bu mashg'ulotlar bolalarning diqqatini va ko'rish xotirasini rivojlantiradi. Tayyorlov guruhidagi bolalardan naturaga qarab chizishda talablar oshadi va ular maktab talablariga yaqinlashadi. Bolalar naturani tahlil qilish, umumiy shaklni qog'ozga xomaki tushirish, rasmni naturaga solishtirish, xatolarni tuzatish va rasmni naturaga o'xshatishga intilish ko'nikmalarini egallaydilar. Naturaga qarab tasvir yaratishda ishning ketma-ketligini tushunish, aynan tayyorlov va katta guruhda boshlang'ich bosqich sifatida shakllantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.T. Xasanova. Tasviriy faoliyatga o'rgatish nazariyasi va metodikasi. Darslik. – T.: Tafakkur, 2020.
2. Z. Radjapova. Bolalar san'ati (maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma). – [Matn]. // "Ilm-fan va innovatsiya", 2022. – 300 bet.
3. Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna. Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyalari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Tamaddun, 2022. – 145 bet.
4. Xudoyberdiyeva Laylo. Tasviriy faoliyat orqali bolalarning estetik didini rivojlantirish. Guliston davlat pedagogika instituti. "Yangi O'zbekiston ilmiy tadqiqotlar" jurnali.
5. Arslanova Umidaxon Komiljon qizi. Tasviriy faoliyat bilan tanishtirish orqali maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni badiiy-estetik jihatdan rivojlantirishning ahamiyati. NamDPI, "Science and Innovation" xalqaro ilmiy jurnali. "Maktabgacha ta'limda kompetensiyaviy yondashuv masalalari: muammo va yechimlari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar to'plami. – 2025-yil 6–7-may.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.